



BOSHQARUVDA DAVLAT XIZMATCHISIGA QO'YILADIGAN KASBIY KOMPETENTSIYALARNING MAZMUNI

Shaniyazova Dilafruz Sabirovna

*Qashqadaryo VPMM Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrası v/b
dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshqaruvning eng dolzarb masalasi hisoblanmish davlat xizmatchisining o'z kasbiga bo'lgan layoqati, ya'ni kasbiy kompetentsiyasining mazmuni yoritilgan, shu bilan birga kasbiy kompetentsiyalarning huquqiy asoslari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: davlat xizmatchisi, kasbiy kompetentsiya, davlat fuqarolik xizmati, kasbiy faoliyat, mehnat faoliyati axloqiy xulq-atvor.

Аннотация: В данной статье рассматривается наиболее актуальная проблема управления, а именно содержание профессиональной компетентности государственного служащего, а также представлена информация о правовой основе профессиональной компетентности.

Ключевые слова: государственный служащий, профессиональная компетентность, государственная гражданская служба, профессиональная деятельность, трудовая деятельность, этическое поведение.

Abstract: This article discusses the most pressing issue of management, namely the content of professional competence of a civil servant, and also provides information on the legal basis of professional competence.

Keywords: civil servant, professional competence, state civil service, professional activity, work activity, ethical behavior.

Davlat fuqarolik xizmatida kompetentlik haqida fikr yuritayotganimizda, davlat xizmatchilarining o'z sohasidagi bilimi, malakasi, ko'nikmasi va uni amaliyotga tatbiq etilish qobiliyati tushuniladi. Davlat fuqarolik xizmatida inson resurslarini rivojlantirish yo'nalishida so'nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilar ekanmiz, sohaga oid huquqiy asoslar yetarli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 1995 yilda qabul qilingan Mehnat kodeksining 16-moddasida xodimning asosiy mehnat huquqlariga uni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq norma mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmonining birinchi maqsadi "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" yo'nalishidagi 10-maqсадda "Davlat fuqarolik xizmati tizimini zamonaviy standartlar asosida tashkil etish" belgilangan. Unda davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va



ijtimoiy ta'minot darajasini oshirish tizimini takomillashtirish vazifasi belgilab berilgan.

Mamalakatimizda davlat boshqaruv organlaridagi davlat fuqarolik xizmatchilarini, ularni faoliyatini tartibga solish maqsadida 2022 yil 8 avgustda O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ – 788-sonli Qonuni qabul qilingan.

Davlat fuqarolik xizmati deganda "davlat xizmatining bir turi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlashga doir haq to'lanadigan kasbiy faoliyati tushuniladi".

Davlat fuqarolik xizmatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- Davlat fuqarolik xizmati tizimining yagonaligi va barqarorligi;
- qonuniylik;
- adolatlilik;
- xalqqa xizmat qilish;
- davlat organlarining va mansabdor shaxslarining jamiyat hamda fuqarolar oldida mas'ulligi;
- inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- xolislik, professionallik va kompetentlik;
- davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O'zbekiston fuqarolarining teng huquqliligi;
- davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi.

Jumladan, Qonunning 4-moddasida davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetentsiyasi - davlat organining vakolatlarini lozim darajada amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar, malakalar va ko'nikmalar majmui ekanligi keltirilgan.

Qonunning 11-moddasida davlat fuqarolik xizmatchisining davlat organining mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan muntazam ravishda malakasini oshirib borish huquqi mavjudligi qayd etilgan bo'lsa, 12-moddada davlat fuqarolik xizmatchisi o'zining kasbiy kompetentsiyasini muntazam ravishda oshirib borishi majburiyat sifatida keltirilgan.

Davlat xizmatchilarining axloqiy xulq-atvori qoidalari qonun bilan belgilab qo'yilgan. Qoidalarga asoslanib, har bir davlat organi faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda axloqiy xulq-atvorning ichki qoidalarini tasdiqlaydi. Ularda quyidagilar bo'lishi kerak:

- rahbarlar, bo'ysunuvdagilar va boshqa davlat fuqarolik xizmatchilari o'rtasidagi o'zaro ahloqiy munosabatlar;
- Davlat fuqarolik xizmatchisining ishchanlik obro'siga va davlat fuqarolik xizmatining nufuziga putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlar (harakatsizlik);



• Davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat faoliyatidagi va xizmatdan tashqaridagi xulq-atvorining asosiy qoidalari.

Davlat fuqarolik xizmatchisining kasbiy kompetentsiyasi — «davlat organining vakolatlarini lozim darajada amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar, malakalar va ko'nikmalar majmui»dir[1].

Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 oktyabrdagi 595-son qaroriga asosan «Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqi» namunaviy qoidalari qabul qilingan bo'lib, bu hujjat davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbiy madaniyati, xizmat faoliyati davomida hamda xizmatdan tashqari vaqtda odob-axloqi, tashqi ko'rinishi va kiyinish uslubining namunaviy qoidalarini belgilaydi.

Odob-axloq qoidalari davlat xizmatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo'lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda davlat xizmatchilarining axloq qoidalariga zid bo'lgan xatti-harakatlarining oldini olishga qaratilgan.

Davlat xizmatchilari o'z kasbiy faoliyatini quyidagi printsiplar asosida amalga oshirishi shart:

- qonuniylik;
- Vatanga sadoqat va xizmat vazifasiga fidoyilik, yuklangan funktsional vazifalarini to'liq bajarish, ijro intizomiga qat'iy rioya etish;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;
- adolatlilik, halollik va xolislik;
- korruptsiyaviy holatlarga muvosiisiz munosabatda bo'lish va qarshi kurashish;
- xizmat sirini qat'iy saqlash;
- mansab vakolatlarini suiiste'mol qilmaslik;
- manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik.

Davlat xizmatchilari mehnat faoliyati davomida va ishdan tashqari vaqtda xulq-atvorning quyidagi umumiy qoidalariga amal qilishi lozim:

- davlat xizmatining obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlardan tiyilish, axloq normalariga doimiy rioya qilish;
- mas'uliyat, kasbiga sadoqat va halollikni kundalik shiorga aylantirish;
- murakkab vazifalarni bajarishda hamkasblariga ko'maklashish;
- xushmuomalalik, e'tiborlilik va hushyorlik bilan fuqarolarda davlatga nisbatan ishonch va hurmat hissini uyg'otish;
- oilasida sog'lom muhitni ta'minlab, oila a'zolariga doimiy g'amxo'r bo'lish, farzandlarida vatanparvarlik va boshqa yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish;
- fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va boshqa omillardan qat'i nazar, ular bilan bir xil, samimiy, odob doirasida munosabatda bo'lish;
- jamiyatda axloqning umume'tirof etilgan qoidalariga amal qilish.



O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2023 yil 11 martdagi 54-sonli buyrug'i qabul qilingan bo'lib, mazkur buyruq asosida «Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi» Nizom tasdiqlangan. Nizomda davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi belgilagan. Davlat fuqarolik xizmatchisi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida amalga oshiriladigan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladigan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan sovg'a olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladigan xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar bilan bog'liq bo'lmagan xizmat safarlari munosabati bilan davlat fuqarolik xizmatchisining sovg'a olishi taqiqlanadi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi kasbiy kompetentsiyani muntazam ravishda rivojlantirib borish – bu davlat fuqarolik xizmatchisining ham huquqi, ham majburiyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: —O'zbekiston||, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 01.04.1996 y.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 24.09.2020 y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni, 08.08.2022 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-son qarori. 14.10.2022 y.